



**AMIR TEMURNING G'ARBIY YEVROPA BILAN OLIB BORGAN
TASHQI SIYOSATI**

Tosheva Muhayyo Hamid qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi

Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi kafedrası

Tarix (mintaqa va mamlakatlar bo'yicha) yo'nalishi I kurs magistri

Ilmiy rahbar: PhD, Ikromov Sh.I.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amir Temurning G'arbiy yevropa bilan olib borgan tashqi siyosati, elchilik aloqalari, boshqaruv tizimi, moliya va diplomatik munosabatlar, soliq, savdo (import va eksport) haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *tashqi siyosiy va madaniy ahvoli, elchilik aloqalari, karvon yo'llari, xatlar.*

Amir Temur va Yevropa qirollari o'rtasidagi munosabatlar ko'p jihatlari bilan kishini hukmdori zamondoshlarining e'tiborini o'ziga jalb etibgina kolmay, balki Yevrosiyo mamlakatlarida hayratga soladi. Aslini olganda ularni ko'p narsa ajratib turardi: e'tiqodlari, tillari, bir-biriga dushman xalqlari, oralaridagi masofa va ayniqsa, manfaatlarining turli-tumanligi¹. XVI, XVII, XVIII, XIX va XX asrlarda Fransiya, Italiya, Ispaniya, Angliya Germaniyada Temurga bo'lgan qiziqish hayratomuz darajada ortib ketdi².

Tarixiy qisqa fursatda qudratli saltanatga aylangan Temur davlati va uning yuz berayotgan barcha voqealarga ham ta'sir ko'rsatdi. O'zaro yordam masalasida Temur Konstantinopol imperatorining noibi Ioann VII Paleolog bilan ham yozishmalar olib boradi. Temurning 1402 yil 15 may kuni Ioann VII Paleolog nomiga yo'llagan xatining mazmuniga qaraganda, Konstantinopol imperatori Genuyaning Peradagi hokimi Boyazidga karshi kurashda Temurga xizmat qilishi, hatto unga «odamlar va har qaysisi 20 tadan 40 harbiy kema bilan» yordam berish

¹ Lyusyun Keren, Akmal Saidov. Amir Temur va Fransiya. -T. 1996.-B.6.

² Jan Pol Ru.Tamerlan. -Parij, 1994. -B.23.



majburiyatini o'z zimmalariga oladilar. Buni Ispaniya elchisi Klavixo xam o'z kundalik daftarida qayd qilib o'tadi³. Temur bu davrda VI Angliya qiroli Genrix IV bilan va Fransiya qiroli Karl VI hamda Kastiliya va Leon qirollari bilan aloqalar o'rnatib, ular bilan yozishmalar olib boradi. Bu davlatlar orasida ayniqsa Fransiya, Vizantiya imperiyasi taqdiriga befarq qaray olmas edi. Shu boisdan Fransiya fuqarolari hisoblangan genuyaliklarning yer va mulklarini, ayniqsa Galatiyadagi mustamlakalarini himoyasida Karl VI o'z navbatida Temurdan madad kutar va u bilan diplomatik aloqalar o'rnatishga intilar edi. Temur va Karl VI yozishmalarida qayd etilishicha, sohibqiron qirolni jiddiy qo'llab-quvvatlaydi⁴. Shunday qilib, Temurning Kichik Osiyo va G'arbiy Yevropa davlatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatish uchun olib borgan dastlabki diplomatik yozishmalari uning g'arbgacha Turkiya ustiga yurishi munosabati bilan boshlanib, ulardan asosan Boyazidga qarshi birgalikda kurashish rejalari ko'zda tutiladi. Biroq Anqara yaqinida turklarning ikki yuz minglik qo'shini ustidan qozonilgan buyuk g'alabadan so'ng Temurning G'arbiy Yevropa davlatlari bilan bo'lgan aloqalarining mazmuni tubdan o'zgaradi. Endilikda Temur ular bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlash hamda elchilik va o'zaro savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yish kabi masalalar bilan cheklanadi. Vizantiya imperatoridan boj olib, uni bilvosita bo'ysundirish bilan kifoyalangan Temur, 1402 yil yozida Fransiya va Angliyaga maxsus elchilik yuboradi. Elchilikka zamonasining mohir diplomati Arxiyepiskop Ioann Galon Ifontibus boshchilik qiladi. Ioann orqali Temur Karl VI va Genrix IV nomlariga maxsus maktublar yo'lladi. Elchilar Parijga 1403 yil mayda yetib boradilar. Bu yerda Ioann tantanali vaziyatda Temurning Turkiya ustidan qozongan g'alabasi, sulton Boyazidni asirga olingani, turklar asir olgan xristianlarni ozod qilingani to'g'risida xabar berar ekan, ikki mamlakatning savdogarlari uchun erkin savdo munosabatlari olib borilishini ta'minlash va agar qiroli hamda getsoglar rozi bo'lsalar, bu erkin savdoni tegishli bitim yoki shartnoma bilan mustahkamlashni taklif etadi⁵. Buning uchun avvalambor muntazam o'zaro elchilik aloqalarining barqarorligi lozim edi. Shu

³ Muhammadjonov.A. Temur va Temuriylar saltanati. –T. “O'zb”. 1995. –B. 57-58.

⁴ Mo'minov.I. Amir Temurning Osiyo tarixida tutgan o'rni va ro'li. -T. “Fan”. 1993.-B. 35.

⁵ Muhammadjonov. A. Temur va Temuriylar saltanati. -T. “Toshkent”.1994. –B.58.



boisdan Temur 1402 yil 1 avgustda Fransiya kiroli Karl VIga yo'llagan maktubida bu haqda quyidagilarni alohida ta'kidlagan edi: «Bundan keyin sizning odamlaringiz bizning yerlarimizga va bizning kishilarimiz sizning o'lkangizga o'tgan ajdodlarimiz davridagidek, borib-kelib tursalar, sizning va bizning nomimizni hamma joyda olqishlab tursalar, mamlakatimiz savdogarlari uchun foyda keltirishsa, ko'p xursand bo'lar edik. Shuni ham aytish kerakki, endilikda bizning yurtimizda savdogarlaringizning xavfsizligi ta'minlanadi»⁶. Fransiya qiroli Karl VI 1403 yil 15 iyunida Temurga yo'llagan javob maktubidan ma'lum bo'lishicha, Temur takliflari Fransiya tomonidan mamnuniat bilan qabul qilingan. Demak, Temurnng Anqara jangidan keyin Fransiya saroyi bilan olib borgan yozishmalari o'zaro savdo shartnomasi tuzishga qaratilgan diplomatik yozishma bo'lib, bu masalada Vatikan vakili arxiyepiskop Ioani Galon Ifontibus muhim rol o'ynagan. Unga Fransiya qiroli Karl VIning javob xatini Temurga yetkazish mas'uliyati yuklangan. Temur davlati bilan Angliya o'rtasida o'zaro diplomatik aloqalar o'rnatilishida ham Vatikan vakilining vositachilik roli katta bo'ldi. Xuddi shu davrda u Temur davlatining g'arbiy viloyatlari hokimi Mironshox bilan Angliya kiroli Genrix IV o'rtasida olib borilgan diplomatik yozishmalarda faol qatnashdi⁷. Amir Temurning 1402 yilda Farangiston qiroli Karl VI yo'llagan maktubida shunday satrlarni o'qiymiz: “Buyuk hukmdorlar va do'stlar o'rtasidagi ulug' ishlar haqida bir-birlarini ogoh etish odatiga buysunib, mazkur arxiyepiskop Janni siz janoblarining huzuriga jo'natdik, toki ul kishi bizning mamlakatimiz va hozirgi ahvolimiz, shuning birla, so'nggi paytlarda bul o'lkalarda sizning g'animglaringizga nisbatan sodir bo'lgan voqealar to'g'risida sizni xabardor etsinlar, batafsil so'zlab bersinlar. Tag'in ul zot sizlar bilan bo'lgan do'stligimiz va ittifoqimiz, siz va sizning odamlaringizga hurmat-e'tiborimiz hamda birodarligimiz ravnaqi yo'lida shu kunlarda bajarilayotgan ko'pgina foydali tadbirlar haqida ham hikoya qilg'aylar. Ul zotni ham sizning, ham bizning odamim iztariqasinda tavsiya etmokdamiz, ul kishini

⁶ Bo'riyev.O. (Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma) T., O'zbekiston, 1996. 246-b.

⁷ Muqimov. Z. (Amir Temur tuzuklari) –Samarqand. 2008. –B.22.



diniy masalalardan tashqari boshqa barcha masalalarda ishonchli vakil deb tinglagaysiz”⁸.

Yevropa salibchilari 1396 yili Bolgariyadagi Nikopol shahri yaqinida mag'lubiyatga uchraganlaridan so'ng Vizantiya imperatori Maniul II Paleolog 1399 yili g'arbdan yordam so'rab murojaat qildi. U turklarga qarshi Rim papasi bilan ittifoq tuzmoqchi edi. Shu kezlarda Amir Temur qudrati va uning ko'p yerlarni zabt etgani haqida Trapezund saltanati orqali Yevropaga xabarlar yeta boshladi. G'arbda davlat rahbarlari Amir Temur bilan muloqotga kirishdilar. 1394 va 1399 yilda Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi muovini ikki marta Amir Temur huzuriga Fransua ismli dominikan monaxini elchi qilib jo'natdi. Unga Sandro hamroh bo'lgan. Sandro Genuya Podestati bilan yaqin aloqada bulgan, chunki uning qo'lida Fransiya qirolining Amir Temur nomiga yozilgan maktubi mavjud edi. Mazkur qirol Genuya homiysi bo'lgan. Fransua o'zining birinchi safari chog'ida agar Amir Temur Boyazidga qarshi urush ochguday bo'lsa Sharqiy O'rta dengiz yoqasida joylashgan Yevropa davlatlari yorlam beradilar-degan fikrni Amir Temurga yetkazdi.

1400-yil mobaynida Venetsiya senati Amir Temur huzuriga o'zining ikki vakilini Andrea Jistiniani va Mateo Barbadigolarni jo'natdi. 1401 yil avgust oyida asli peralik keyinchalik esa Genuyada o'troq bo'lib qolgan kishining hisob daftariga yozilganiga qaraganda bu shaharga Amir Temur elchisi kelgan. Mazkur elchi imperator saroyiga tashrif buyurgan, bu o'sha vaqtdayoq imperator bilan Amir Temur o'rtasida aloqa o'rnatilgan deyish uchun asos bo'ladi. Ana shu ikki elchi Pera genuyaliklarining usmonlilar bilan ittifoqdan va har qanday xolislikdan voz kechish iltimosini izhor etishgan⁹. Ushbu iltimos mamnunlik bilan qabul qilindi va elchilarga ikkita ot tuhfa qilingan. Nusxasi Venetsiya arxivlarida saqlanadigan bir maktubga qaraganda, 1402 yil iyunida yoki iyul oyi boshlarida Amir Temur monax Fransuani Konstantinopol imperatorining muovini huzuriga jo'natgan. Ushbu maktubda Amir Temur monax Fransuani qabul qilganini, monax unga yoqqanini va u Trapezund

⁸ Ashraf Ahmad, Haydarbek Bobobekov. (Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma.) -T."Fan". 1972.-B. 281.

⁹ Ashraf Ahmad, Haydarbek Bobobekov.(Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma) –T. "Fan".1972. –B. 287.



imperatoridan o'zaro ittifoq uchun yigirmata yaxshi qurollangan galerlarni talab qilganini yozadi, shundan keyin Amir Temur muovinga Boyazid xuzuriga monax Fransua hamkorligida elchilar jo'natganini ma'lum qiladi¹⁰. Anqara jangidan so'ng G'arbiy Yevropa davlatlaridan Fransiya va Angliya yozishmalar orqali Amir Temur bilan diplomatik munosabat o'rnatdi. Fransuz qiroli Karl VI bilan Amir Temur o'rtasidagi yozishmalarning bir qismi Fransiya hujjatxonasida saqlangan. Bu yozishmalardan anglashilishicha, Amir Temur Fransiya qirolining takliflarini rad etmagan va Karl VI ning Sharqqa nisbatan siyosatini ko'llagan. Amir Temurning forsha yozilgan va 1402 yil 1 avgust sanasi qo'yilgan maktubi aslida Anqara jangidan avval yozilgan bo'lib unga sana keyin qo'yilganligi aniqlandi. Maktublar Amir Temur o'z davlati bilan Fransiya o'rtasida savdo aloqalarini o'rnatish istagini bildirgan. Amir Temurni bizgacha saqlanib qolgan ikkinchi lotincha tarjimadagi maktubi ham 1402 yil 1 avgust bilan sanalangan. Ikkala maktubni ham Sultoniyaning katolik arxiepiskopi Ioann II Fransiyaga olib borgan. Karl VI ning Amir Temur nomiga 1403 yil 15 iyulda yo'llagan birgina maktubi saqlangan. Maktub: «Karl xudoning marhamati bilan fransuzlarning qiroli, eng shavkatli va eng oliy hazrat podshoh Temurbekka salom va tinchlik bo'lsin» so'zlari bilan boshlanadi¹¹. So'ngra maktubda Fransiya bilan Amir Temur davlati o'rtasida savdo aloqalari o'rnatish masalasiga katta o'rin berilgan. Karl VI maktubidan anglashilishicha uning fuqarolari Amir Temur mulkiga bemalol bora olganlar. Amir Temur bilan Karl VI o'rtasidagi yozishmadan ma'lum bo'lishicha, ikkala podsho ham savdo bitimi tuzishdan manfaatdor. Biroq 1405 yil fevralida Amir Temur vafoti bu ishni poyoniga yetkazish imkonini bermadi. Amir Temur va Mironshoh Angliya bilan diplomatik yozishmalar olib borishgan. Angliya qiroli Genrix IV (1399—1413)ning lotincha yozilgan va Mironshox bilan Amir Temurga yo'llagan ikkita maktubi saqlangan. Bir tarafdin, Amir Temur va Mironshox bilan ikkinchi tarafdin, Angliya qiroli o'rtasida yana o'sha Sultoniya arxiyepiskopi eslatilgan Ioann vositachi bo'lgan. Arxiyepiskop Ioanning diplomatik tashrifi 1399 yil bilan 1404 yil

¹⁰ Ubaydulla Uvatov.(Ibn Arabshoh. Amir Temur tarix).-T. "Toshkent".1997. Ikki jildlik, 1-j, -B. 70.

¹¹ Tog'ayev Ochil.(Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga- Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406)). -T."Fan". 2010. -B. 19.



orasidagi davrni o'z ichiga oladi. Genrix IV ning Amir Temurga maktubi Sohibqironning hozirgacha saqlangan maktubiga javoban yozilgan. U shunday boshlanadi: «Genrix xudoning marhamati bilan Angliya va Fransiya qiroli, shuningdek Irlandiya hokimi buyuk va qudratli podshoh Temurbekka Tangrini sevuvchi do'stga hammasining xaloskoriga salom va tinchlik bo'lsin». Yevropa qirollari bilan bo'lgan yozishmalardan ma'lumki Amir Temurning qudratli olamshumul davlatning hokimi sifatida obro'si G'arbda juda yuksak bo'lgan. Yevropa monarxlari uni chuqur ehtirom bilan «Eng shavkatli va eng g'olib podsho Temurbek» deydilar¹².

Sohibqironning xalqaro yozishmalari asosan fors tilida olib borilgan. Chunki bu til o'sha paytda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining nafaqat o'zaro, balki boshqa mintaqa davlatlari bilan olib borgan muloqotlarida rasmiy xalqaro aloqalar vositasi sifatida tan olingan va diplomatik yozishmalar ko'pincha ana shu tilda olib borilgan. Amir Temur bu an'anaga amal qildi, lekin o'z xatlarini “Amir Temur so'zim” yoki “so'zim iz” degan turkiy kalima bilan boshlashni rasmiy udumga aylantirdi. Buni Yevropa mamlakatlariga yo'llangan yozishmalarda ham ko'ramiz. Hatto Amir Temur maktublarining lotincha tarjimalaridan birida “so'zimiz” kalimasi Temurning rasmiy unvonlaridan biri bo'lsa kerak, degan andisha bilan ag'darilmasdan “so'smo's” deb yozib qo'ya qolinganoligi nazarga tashlanadi.

Amir Temur boshqa hukmdorlarga elchilar yuborar ekan, ularga yuklatilgan missiyaning ahamiyatiga qarab o'z nomidan ish ko'ruvchi bunday odamlarning e'tiborli, el-yurt ichida tanilgan, aql va zakovatli bo'lishiga katta e'tibor bergan. Uning a'yonlari ham ana shunday kishilardan iborat bo'lgan. Buni italiyalik tojir Mignanelli asarida keltirilgan quyidagi satrlar to'la isbotlaydi: "Temurning kishilari, -deb yozadi, juda ham ko'rkam edilar, ular nasli-nasabiga ko'ra ham ulug'vor ko'rinardi. Ular oliy xususiyatli, farosatli, mashxur, yoshiga qarab mansabdor bo'lgan kishilar edi. Temurning shunday odamlari bor ediki, ular arab, yunon, hibru (yahudiy) va boshqa qator tillarni bilardilar, osmon ilmi, geometriyadan mashhur

¹² Xolbekov Muhammadjon. Amir Temurning Yevropa qurollari bilan yozishmalari.-S.“Meros”.1996.-B.19.



edilar". Sohibqiron elchilarni ham ana shunday kishilardan tanlaganligiga shubha qolmaydi¹³.

Amir Temur vafotidan so'ng Temuriylar davlatida Yevropa davlatlariga munosabat o'zgardi. Amir Temurning ko'p elchilari o'z vazifalarini ado etish asnosida o'ldirilgan. Lekin Amir Temurning o'zi doimo elchi daxlsiz ekanligini ta'kidlab kelgan. Agar elchi hatto dushman tarafidan kelgan bo'lsa ham. u doimo ularga sarpo kiydirgan. Amir Temur karvon yo'llarining xavfsizligi uchun harakat qilib doimo ham yaqin ham uzoq mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlar o'rnatishga intilardi. Ulkan hududlar va ko'plab mamlakatlarni bir davlatga birlashtirib. ular orasida uzviy iqtisodiy aloqalar o'rnatishga harakat qilgan. Bu sohada ulkan yutuqlarga erishgan va diplomatiyani rivojlantirishga o'zining katta hissasini qo'shgan. Amir Temur davri diplomatiyasini o'rganish mobaynida biz diplomatiyaning yetuk na'munalarini ko'rishimiz va o'z xulosalarimizni chiqaramiz. O'zbek diplomatiyasi tarining eng gullagan davri ham aynan Amir Temur davri bilan bog'liq va bu davrdab bizgacha ulkan diplomatik meros qolgan va biz bundan oqilona foydalanishga harkat qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Ashraf Ahmad, Haydarbek Bobobekov.(Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma) -T. 1972. 383-bet.
2. Tog'ayev Ochil. (Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga- Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406)).-T. "Fan". 2010. 261-bet.
3. Bo'riyev Omonullo. (Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma).-T. "O'zbekiston". 1996. 357-bet.
4. Xolbekov Muhammadjon. Amir Temurning Yevropa qurollari bilan yozishmalari.- S. "Meros". 1996. 37-bet.
5. Uvatov Ubaydullo. (Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi).-T. "Toshkent".1997. Ikki jildlik, 1-j, 190-bet.

¹³ Bo'riyev Omonullo. (Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma) -T. "O'zbekiston".1996. –B. 247.



6. Muqimov Ziyodulla.(Amir Temur tuzuklari).-Samarqand. “Meros”. 2008. 66-b.
7. Muhammadjonov Abdulahad. Temur va Temuriylar saltanati. -T. “Toshkent”.1994. 158- bet.
8. Mo’minov Ibrohim. Amir Temurning Osiyo tarixida tutgan o’rni va ro’li. -T. “Fan”. 1993. 57-bet.
9. Lyusyun Keren, Akmal Saidov. Amir Temur va Fransiya. -T. “Tashkent”. 1996. 88-b.
10. Lyusyun Keren. Amir Temir saltanati. -T. “ Toshkent”. 1999. 224-bet
11. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. O’zbek diplomatiyasi tarixidan. -T. “Fan”. 2003. 376-bet
12. Oljaeva Sh. Amir Temur va temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi. -T. “ Fan”. 2005. 270-bet.